


**O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI-
NING CHAKANA
SAVDO TOVAR
AYLANMASI
(2019-yil yanvar-
avgust*)**

**Hududlar
kesimida
chakana savdo
tovar aylanmasi
hajmi
(mlrd. so`m)**


Respublika bo'yicha joriy yilning yanvar-avgust oyida chakana savdo tovar aylanmasi 100 205,8 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6,7 % ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 15 765,7 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 31,2 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tovar aylanmasi 84 440,1 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 3,1 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 10 722,8 mlrd. so'mni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 10,1 % ga kamaygan) tashkil etdi.



2018-yilning shu davriga nisbatan respublikaning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Xorazm, Sirdaryo, Navoiy, Jizzax viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida qayd etildi.

*-dastlabki ma'lumotlar

Chakana savdo tovar aylanmasining o'rish sur'atlari, %




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 31,2 % ga o'sdi va 15 765,7 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 15,7 % ulushiga to'g'ri keladi.


Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 84 440,1 mlrd. so'mni tashkil etib, 2018-yilning yanvar-avgust oyiga nisbatan 3,1 % ga o'sdi. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 84,3 % ga teng kelmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, %

2018-yil yanvar-avgust




2019-yil yanvar-avgust



Yirik korxonalar
 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Chakana savdo aylanmasida yirik korxonalar va kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi, %



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorliklarining ulushi bo'yicha Qashqadaryo (96,9 %), Jizzax (90,7%), Toshkent (90,3 %) Surondaryo (88,7 %) va Namangan (87,6 %) viloyatlari yetakchilik qilmoqda.


Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 15,7 % ni tashkil etib, eng katta ulush Toshkent shahrida (26,7 %), Xorazm viloyatida (24,3 %), va Buxoro viloyatida (15,0 %) kuzatilgan.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik va yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi

	Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik (mlrd. so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %
O`zbekiston Respublikasi	15 765,7	131,2	84 440,1	103,1
Qoraqalpog`iston Respublikasi	441,1	153,3	2 933,1	104,4
<i>viloyatlar:</i>				


	Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik (mlrd. so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %
Andijon	977,3	134,6	6 548,5	102,7
Buxoro	925,3	139,7	5 250,8	103,5
Jizzax	332,2	145,4	3 245,1	106,2
Qashqadaryo	188,0	37,6	5 867,8	106,8
Navoiy	552,1	192,4	3 455,4	102,0
Namangan	743,2	160,7	5 270,3	102,8
Samarqand	1 209,3	167,9	7 335,1	102,4
Surxondaryo	687,1	141,1	5 398,3	104,1
Sirdaryo	245,0	236,1	1 597,8	102,4
Toshkent	1 080,5	96,8	10 116,0	105,9
Farg`ona	1 027,8	125,5	6 848,6	102,2
Xorazm	1 017,5	159,6	3 171,1	104,8
Toshkent sh.	6 339,4	127,8	17 402,1	100,6

Hududlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining respublika chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, %




**Mulkchilik shakli
bo'yicha
chakana savdo
tovar aylanmasi
ulushi, %**

2018-yil
yanvar-avgust




2019-yil
yanvar-avgust



■ Davlat mulki
■ Nodavlat mulki

**Chakana savdo
tovar
aylanmasida
mulchlik
shakllarining
ulushi, %**



■ Davlat mulki
■ Nodavlat mulki

Mulkchilik shakllari bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasi hajmi

	Jami (mlrd. so`m)	<i>shu jumladan:</i>	
		nodavlat mulki (mlrd. so`m)	davlat mulki (mlrd. so`m)
O'zbekiston Respublikasi	100 205,8	100 019,8	186,0
Qoraqalpog'iston Respublikasi	3 374,3	3 373,3	0,9
<i>viloyatlar:</i>			
Andijon	7 525,8	7 523,9	1,9
Buxoro	6 176,1	6 173,6	2,5
Jizzax	3 577,3	3 574,9	2,4
Qashqadaryo	6 055,9	6 054,2	1,6
Navoiy	4 007,5	3 978,2	29,3
Namangan	6 013,5	6 011,0	2,4
Samarqand	8 544,4	8 542,8	1,6
Surxondaryo	6 085,4	6 084,1	1,3
Sirdaryo	1 842,8	1 842,8	-
Toshkent	11 196,5	11 193,1	3,4
Farg'ona	7 876,4	7 876,4	0,0
Xorazm	4 188,6	4 187,9	0,6
Toshkent sh.	23 741,5	23 603,5	138,0

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2019-yil yanvar-avgust oyida o'tgan yilning mos davriga nisbatan respublikamizning barcha hududlarida (Qashqadaryo (99,0 %) viloyatidan tashqari) o'sish ko'rsatkichlarini tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichni boshqa hududlar bilan solishtirganda eng yuqorisi Toshkent shahri (9 405,6 ming so`m), Navoiy (4 076,8 ming so`m) va Toshkent (3 850,5 ming so`m) viloyatlari hissasiga to'g'ri

keladi. Buning sababi ushbu hududlarda yirik savdo va sanoat tashkilotlari joylashganligidir.


2019 yil yanvar-avgust holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 3 001,1 ming so'm (o'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda 4,8 % ga o'sgan). Ushbu ko'rsatkich respublika hududlari kesimida quyidagicha ko'rinish olgan:

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming so'm	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %
O'zbekiston Respublikasi	3 001,1	104,8
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1 798,8	107,4
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	2 445,2	104,1
Buxoro	3 249,4	106,0
Jizzax	2 632,5	106,7
Qashqadaryo	1 876,8	99,0
Navoiy	4 076,8	107,2
Namangan	2 175,1	105,5
Samarqand	2 239,1	106,1
Surxondaryo	2 356,7	105,0
Sirdaryo	2 211,2	108,8
Toshkent	3 850,5	103,6
Farg'ona	2 130,4	102,9
Xorazm	2 275,0	112,4
Toshkent sh.	9 405,6	104,6

Hududlar kesimida ovqatlanish tashkilotlari savdo aylanmasi hajmi
(mlrd. so`m)



Shuningdek, 2019-yilning yanvar-avgust oyi mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,9 % ni tashkil etib, 2 916,2 mlrd. so`mga yetdi va o`tgan yilning mos davriga nisbatan 8,4 % ga o`tdi. Bunda jami savdo aylanmasining 84,0 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub`ektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.



Mulkchilik shakli bo'yicha ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi ulushi, %


2018-yil yanvar-avgust

2019-yil yanvar-avgust



Davlat mulki
 Nodavlat mulki

Hududlar kesimida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi bo'yicha mulchlik shakllarining ulushi, %



Mulkchilik shakllari bo'yicha ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi hajmi

	Jami (mln. so`m)	shu jumladan:	
		nodavlat mulki (mln. so`m)	davlat mulki (mln. so`m)
O'zbekiston Respublikasi	2 916 229,8	2 771 531,6	144 698,2
Qoraqalpog'iston Respublikasi	105 343,5	105 167,6	175,9
<i>viloyatlar:</i>			
Andijon	90 262,1	90 262,1	-
Buxoro	215 673,3	215 630,1	43,2
Jizzax	74 688,8	74 447,5	241,3
Qashqadaryo	133 290,2	133 052,9	237,3
Navoiy	100 679,2	91 524,3	9 154,9
Namangan	93 818,3	93 274,4	543,9
Samarqand	205 029,1	204 297,5	731,6
Surxondaryo	125 794,3	125 408,9	385,4
Sirdaryo	34 875,4	34 875,4	-

	Jami (mln. so`m)	shu jumladan:	
		nodavlat mulki (mln. so`m)	davlat mulki (mln. so`m)
Toshkent	302 400,6	301 497,5	903,1
Farg`ona	130 472,4	130 470,8	1,6
Xorazm	60 095,7	59 650,9	444,8
Toshkent sh.	1 243 806,9	1 111 971,7	131 835,2


**O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASIN
ING ULGURJI
SAVDO TOVAR
AYLANMASI**

(2019-yil yanvar-avgust*)

Yil boshidan respublika bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 50 724,5 mlrd. so`mni tashkil qildi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 6,9 % ga o'sgan.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2019-yil yanvar-avgust oyi yakunlariga ko'ra, 35 721,6 mlrd. so`mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5,2 % ga o'sgan. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 70,4 % ni tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatkich boshqa viloyatlar bilan taqqoslanganda, Toshkent shahrida (80,6%), Farg'ona (79,1 %), Samarqand (70,2%) va Andijon (67,7 %) viloyatlarida yuqori bo'lgan.

**Yirik korxonalar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning
ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, %**



*-dastlabki ma'lumotlar

■ Yirik korxonalar
■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik


Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida yirik korxonalar aylanmasining ulushi 29,6 % ni tashkil etdi, yirik korxonalarining aksariyati Navoiy (57,2 %) va Toshkent (54,8 %) viloyatlarida kuzatildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi


	Jami (mlrd. so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %	Yirik korxonalar (mlrd. so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik (mlrd. so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %
O'zbekiston Respublikasi	50 724,5	106,9	15 002,9	111,1	35 721,6	105,2
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1 161,0	115,9	515,8	141,3	642,5	101,3
<i>viloyatlar:</i>						
Andijon	1 726,8	104,9	558,4	109,0	1 168,4	103,0
Buxoro	1 523,6	98,8	541,2	87,8	982,4	106,1
Jizzax	1 550,8	129,0	654,1	143,8	896,7	120,0
Qashqadaryo	1 737,2	93,3	681,8	80,8	1 055,4	103,8
Navoiy	1 489,1	104,8	852,2	106,8	636,9	102,3
Namangan	1 439,7	106,2	722,7	111,3	717,0	101,6
Samarqand	3 587,6	107,8	1 070,8	122,9	2 516,7	102,4
Surxondaryo	1 551,0	100,7	506,2	89,9	1 044,8	106,9
Sirdaryo	956,9	99,4	357,1	92,9	599,8	103,8
Toshkent	4 589,9	94,6	2 514,1	88,6	2 075,8	103,0
Farg'ona	3 333,6	108,5	696,5	108,8	2 637,2	108,4
Xorazm	1 251,9	108,6	506,7	111,3	745,2	106,8
Toshkent sh.	24 825,3	110,6	4 825,2	137,2	20 000,1	105,6

Mulkchilik shakli
bo'yicha
ulgurji savdo
tovar aylanmasi
ulushi, %

2018-yil
yanvar-avgust




2019-yil
yanvar-avgust



Davlat mulki
 Nodavlat mulki

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi
bo'yicha mulchlik shakllarining ulushi, %




**Mulkchilik shakllari bo'yicha
ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi**

	Jami (mlrd. so`m)	shu jumladan:	
		nodavlat mulki (mlrd. so`m)	davlat mulki (mlrd. so`m)
O`zbekiston Respublikasi	50 724,5	50 672,5	52,0
Qoraqalpog`iston Respublikasi	1 161,0	1 161,0	-
<i>viloyatlar:</i>			
Andijon	1 726,8	1 726,6	0,2
Buxoro	1 523,6	1 523,6	-
Jizzax	1 550,8	1 550,8	-
Qashqadaryo	1 737,2	1 737,2	-
Navoiy	1 489,1	1 488,4	0,7
Namangan	1 439,7	1 439,7	-
Samarqand	3 587,6	3 587,6	-
Surxondaryo	1 551,0	1 550,9	0,1
Sirdaryo	956,9	956,9	-
Toshkent	4 589,9	4 588,7	1,2
Farg`ona	3 333,6	3 333,6	-
Xorazm	1 251,9	1 251,9	-
Toshkent sh.	24 825,3	24 775,6	49,7

Joriy yilning yanvar-avgust oyi yakunlari bo'yicha ulgurji savdo aylanmasi 50 724,5 mlrd. so`mni tashkil etib, shu jumladan nodavlat tasarrufiga ega subyektlar tomonidan ulgurji savdo aylanmasi 50 672,5 mlrd. so`mni va davlat tasarrufiga ega korxonalar tomonidan 52,0 mlrd.so`mni tashkil etdi. Ko`rsatkichlarni hududlar bo'yicha tahlil qiladigan bo`lsak, respublika ulgurji savdo aylanmasida yuqori ulush Toshkent sh. 48,9 %, Toshkent 9,0 %, Samarqand 7,1 %, Farg`ona 6,6 % viloyatlarida qayd etildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining
o'tgan yilga nisbatan o'zgarish sur'atlari, %



Ulgurji tovar aylanmasida o'tgan yilning shu davriga nisbatan eng quyi o'sish sur'atlari Qashqadaryo (93,3 %), Sirdaryo (99,4 %), Toshkent (94,6 %) va Buxoro (98,8 %) viloyatlarida qayd etildi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi
boshqarmasi
Tel.:71-230-80-42 (43)**